IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

BOLALARNI ZO‘RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH TIZIMIDA BOLA HUQUQLARINI TA’MINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

D. M. Raxmatova
Qarshi tuman 10-DMTT direktori
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20291564

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimida bola huquqlarini ta’minlashning huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Xalqaro huquq normalari, milliy qonunchilik hamda bolalarni himoya qilishga oid institutsional mexanizmlar o‘rganilgan. Shuningdek, bola huquqlarini himoya qilishda davlat organlari, ta’lim muassasalari va oilaning o‘rni yoritilib, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: bola huquqlari, zo‘ravonlik, bolalarni himoya qilish, huquqiy asoslar, xalqaro huquq, milliy qonunchilik, bola manfaatlari, himoya mexanizmlari.

Аннотация : В данной статье анализируются правовые основы обеспечения прав ребенка в системе защиты детей от насилия. Рассматриваются нормы международного права, национальное законодательство, а также институциональные механизмы защиты детей. Особое внимание уделяется роли государственных органов, образовательных учреждений и семьи в обеспечении прав ребенка, а также существующим проблемам и путям их решения.
Ключевые слова: права ребенка, насилие, защита детей, правовые основы, международное право, национальное законодательство, интересы ребенка, механизмы защиты.

Abstract: This article analyzes the legal foundations for ensuring children's rights within the system of protecting children from violence. It examines international legal standards, national legislation, and institutional mechanisms aimed at child protection. The study also highlights the role of state bodies, educational institutions, and families in safeguarding children's rights, as well as existing challenges and possible solutions.
Keywords: children’s rights, violence, child protection, legal foundations, international law, national legislation, best interests of the child, protection mechanisms.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi 2024 yil 14 noyabr,O‘RQ-996-sonli qonuni qabul qilingan unga muvofiq. Bolaning hayotiga, sog‘lig‘iga, jinsiy daxlsizligiga, sha’niga, qadr-qimmatiga hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yoki yetkazishi mumkin bo‘lgan hamda asosiy ehtiyojlariga zid bo‘lgan, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet butunjahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda amalga oshiriladigan, qasddan sodir etiladigan harakat (harakatsizlik) bolalarga nisbatan zo‘ravonlik deb e’tirof etiladi. Jismoniy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, ekspluatatsiya qilish va ta’qib etish (bulling) bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning shakllaridan biri hisoblanadi. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllari taqiqlanadi hamda qonun bilan ta’qib qilinadi. Bolalarga og‘irligi turli darajada bo‘lgan tan jarohatlari yetkazish, ularni xavf ostida qoldirish, hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfli holatda bo‘lgan bolalarga yordam ko‘rsatmaslik hamda zo‘ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklarni sodir etish yoxud bolalarning hayoti, sog‘lig‘i yoki erkinligiga tajovuz qiladigan jismoniy ta’sir o‘tkazish bolalarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik deb e’tirof etiladi. Bolalarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha’ni va

qadrqimmatini kamsitish, ularni tahqirlash, shuningdek bolalarning asosiy ehtiyojlarini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalangan zo‘ravonlik shakli, shu jumladan zo‘ravonlikdan jabrlanuvchida o‘z xavfsizligi uchun xavotir uyg‘otgan, o‘zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog‘lig‘iga zarar yetkazgan harakatlar (harakatsizlik) bolalarga nisbatan ruhiy zo‘ravonlik deb e’tirof etiladi. Bugungi globallashuv davrida bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari dunyo miqyosida dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, voyaga yetmagan qizlarga nisbatan sodir etilayotgan zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlar jamiyatda jiddiy xavotir uyg‘otmoqda. Shu sababli bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish, ularning huquq va erkinliklarini ta’minlash, xavfsiz muhit yaratish hamda huquqiy himoya mexanizmlarini yanada kuchaytirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Xususan, Yangi O‘zbekistonda bolalar va manfaatlarini himoya qilish, ularning qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda xalqaro standartlarga mos himoya mexanizmlarini takomillashtirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 apreldagi “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4296-son qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) o‘rinbosari — Bola huquqlari bo‘yicha vakil lavozimining joriy etilishi mamlakatimizda bolalarini himoya qilishning institutsional va huquqiy asoslari mustahkamlanib borayotganining yaqqol ifodasidir. Mazkur institut bolalarning va erkinliklarini ta’minlash, ularning manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatini samarali amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. So‘nggi yillarda bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish muammosi nafaqat ijtimoiy, balki huquqiy va psixologik jihatdan ham jahon miqyosida dolzarb masalaga aylangan. Xalqaro hamjamiyat tomonidan bolalarning hayoti, erkinligi va sha’ni daxlsizligini ta’minlash bo‘yicha qator konsepsiyalar, qonunlar va dasturlar ishlab chiqilgan. Ushbu yo‘nalishdagi nazariy va amaliy tadqiqotlar bolalarni har qanday zo‘ravonlikdan himoya qilish mexanizmlarining kompleks va tizimli asosda tashkil etilishini taqozo etadi. Adabiyotlarda bolalarni himoya qilish g‘oyasi inson huquqlari konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liqligi ta’kidlanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yilda qabul qilingan “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya” bolalarning jismoniy, ruhiy, jinsiy va emotsional zo‘ravonlikdan himoyalanishini xalqaro miqyosda kafolatlovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Konvensiyada bola huquqlarini ta’minlashda davlat, oila, ta’lim muassasalari va jamoaning o‘zaro hamkorligi zarurligi alohida qayd etilgan (UNICEF, 2013). K.Goldshteyn (1939) tomonidan ilgari surilgan “o‘zini o‘zi faollashtirish” nazariyasiga o‘xshash yondashuvlar psixologik jihatdan bolalarning shaxsiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish g‘oyasini asoslab beradi. Unga ko‘ra, inson o‘z ichki imkoniyatlarini rivojlantirgan taqdirdagina tashqi bosim va zo‘ravonlikka qarshi ongli qarshilik ko‘rsata oladi. Bu g‘oya keyinchalik A.Maslou, K.Rodjers va E.Erikson singari psixologlar asarlarida ham insonning ijtimoiy-psixologik himoya tizimini shakllantirish konsepsiyasi sifatida rivojlantirilgan. “Zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolari” Ko‘plab xorijiy tadqiqotchilar (S.Mohaimen, J.Uddin, 2021; L.Herbert, 2018) bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning to‘rtta asosiy turini ajratadi: jismoniy, ruhiy, jinsiy va iqtisodiy. Har bir turi bolaning emotsional holatiga, o‘zini baholashiga va ijtimoiy moslashuv jarayoniga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Adabiyotlarda ruhiy va emotsional zo‘ravonlikning oqibatlari ayniqsa chuqur va uzoq muddatli ekani, u bolaning kelajakdagi shaxsiy rivojlanishida travmatik izlar qoldirishi ta’kidlanadi (WHO, 2019). V.Franklning ekzistensial yondashuvi asosida, zo‘ravonlikka uchragan bola o‘z hayotining ma’nosini yo‘qotadi, bu esa shaxsiy inqiroz, o‘zini qadrsiz his etish va ijtimoiy chekinish holatlarini keltirib chiqaradi. Shu bois, bolalar bilan ishlovchi mutaxassislarning psixologik yordam ko‘rsatish malakasi zo‘ravonlikni kamaytirishda

hal qiluvchi ahamiyatga ega. Adabiyotlarda ko‘plab mamlakatlarda bolalarni himoya qilishning samarali modeli kompleks yondashuv asosida shakllantirilgani qayd etiladi. Masalan, Skandinaviya mamlakatlarida ijtimoiy xizmatlar, psixologik markazlar, sog‘liqni saqlash muassasalari va huquqni muhofaza qilish organlari o‘zaro integratsiya asosida faoliyat yuritadi. O‘zbekiston Respublikasida bolalar huquqlarini himoya qilish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. 2020-yilda qabul qilingan “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, shuningdek, “Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar” faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida psixologik xizmatlarni kengaytirish tashabbuslari amalga oshirilmoqda. Mahalliy olimlar (V.Karimova, M.Hakimova, N.Ismoilova, D.Qodirova) o‘z tadqiqotlarida bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishda psixologik savodxonlik, emotsional barqarorlik va ota-onalar mas’uliyatini oshirish zarurligini asoslab berishgan. Ularning fikricha, zo‘ravonlikni oldini olish uchun faqat huquqiy mexanizmlar emas, balki shaxslararo munosabatlarda empatiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va madaniy bag‘rikenglikni rivojlantirish ham muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish tizimida bola huquqlarini ta’minlashning huquqiy asoslari kompleks ravishda o‘rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini dialektik yondashuv tashkil etib, bolalar huquqlarini himoya qilishga oid huquqiy munosabatlarning rivojlanish tendensiyalari, ularning mazmun-mohiyati hamda amaliyotdagi o‘rni tahlil qilindi. Shuningdek, tizimli tahlil usuli orqali bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga oid xalqaro huquq normalari, milliy qonunchilik hujjatlari va institutsional mexanizmlar o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Tadqiqot davomida qiyosiy-huquqiy usuldan foydalanilib, xorijiy davlatlarning bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish borasidagi tajribasi hamda xalqaro standartlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan solishtirildi. Xususan, BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi, xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari hamda milliy normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Formal-yuridik usul yordamida O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, bola huquqlariga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazmunan o‘rganilib, ulardagi huquqiy normalarning ahamiyati yoritildi. Statistik va sotsiologik tahlil usullari orqali esa bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari, ularning kelib chiqish sabablari hamda ushbu muammoning bugungi kundagi holati yuzasidan mavjud ma’lumotlar umumlashtirildi. Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqot mavzusini har tomonlama yoritish, mavjud muammolarni aniqlash hamda bolalar huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirishga oid ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

Tahlil va natija. Zo‘ravonlik turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: jismoniy, ruhiy, jinsiy va iqtisodiy shakllari mavjud. Bolalar orasida esa eng ko‘p uchraydigan holatlar — oilaviy zo‘ravonlik, beparvolik, yoki pedagogik tazyiq holatlaridir. Bunday holatlar bolaning ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, qo‘rquv, o‘ziga past baho berish, ijtimoiy faollikdan chekinish, tajovuzkorlik yoki depressiv holatlar kabi oqibatlarni keltirib chiqaradi. Psixologik nuqtayi nazardan, zo‘ravonlikdan kelib chiqadigan travmalar bolaning kelajakdagi shaxsiy rivojlanishiga, ijtimoiy moslashuviga va o‘zini baholash tizimiga zarar yetkazadi. UNICEF, UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan dasturlarni moliyaviy va metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi. Har bir davlat o‘zining ijtimoiy-madaniy sharoitidan kelib chiqib, mazkur tajribalarni milliy tizimga moslashtiradi. O‘zbekiston Respublikasida bolalarni himoya qilish sohasida so‘nggi yillarda qator muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

- “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun
- “Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar” faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Bundan tashqari, maktab va maktabgacha ta’lim tizimlarida psixologik xizmatlar faoliyati kengaytirilmoqda. Bolalar bilan ishlovchi psixologlar, ijtimoiy pedagoglar va tarbiyachilarning hamkorlik tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Zo‘ravonlikni oldini olishda psixologlarning o‘rni beqiyosdir. Ular nafaqat jabrlangan bolalarga psixologik yordam ko‘rsatadilar, balki ota-onalar va pedagoglar uchun profilaktik tavsiyalar, treninglar, ma’rifiy suhbatlar tashkil etadilar. Bolalar psixologik salomatligini saqlashga yordam beradi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (UNESCO) va inson huquqlari UNESCO, necha yildirki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining UNESCOning Bosh konferensiyasi Xalqaro madaniy hamkorlik tamoyillari deklaratsiyasini qabul qilgan va e’lon qilgan. Hukumatlar, Bola huquqlari bo‘yicha xalqaro mexanizmlar ma’murlar, madaniy faoliyat uchun mutasaddi tashkilotlar, uyushmalar va muassasalar bundan buyon ana shu Deklaratsiyaga amal qilishlari lozim, deb topilgan. Aholining bola huquqlari borasidagi xabardorlik darajasini o‘rganish va oshirish metodlari.

№	Huquqiy mexanizm	Mazmuni	Amalga oshiruvchi subyektlar	Kutilayotgan natija
1	Qonunchilik bazasi	Bola huquqlarini himoya qiluvchi normativ-huquqiy hujjatlar	Oliy Majlis, Hukumat	Huquqiy kafolatlarni mustahkamlash
2	Profilaktik choralar	Zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha targ‘ibot va monitoring	Ta’lim muassasalari, IIB	Zo‘ravonlik holatlarining kamayishi
3	Psixologik yordam	Jabrlangan bolalarga psixologik va ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatish	Psixologik markazlar	Bolaning ruhiy tiklanishi
4	Sud-huquq himoyasi	Bola huquqlarini sud orqali himoya qilish	Sud va prokuratura organlari	Adolatni ta’minlash
5	Xalqaro hamkorlik	Xalqaro konvensiyalar va tajribalarni joriy etish	UNICEF, BMT, davlat organlari	Zamonaviy himoya tizimini shakllantirish

“Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda bolalarga nisbatan har qanday shafqatsiz munosabatning oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.”

“Ta’lim, tarbiya hamda boshqa bolalar bilan ishlovchi tashkilotlarda bolalarga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik, ularni kamsitish va tahqirlashning oldini olish bo‘yicha samarali mexanizmlar joriy etiladi.”

“Zo‘ravonlikka uchragan bolalarni aniqlash, himoya qilish, ularga psixologik, ijtimoiy va huquqiy yordam ko‘rsatish tizimi yanada takomillashtiriladi.”



“Jamiyatda bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllariga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish asosiy vazifalardan biri etib belgilanadi. Shuningdek, zamonaviy ilmiy maqolalar va konferensiya materiallari bola huquqlarini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, mavjud muammolar hamda ularning yechimlariga e’tibor qaratib, amaliy jihatlarni ochib beradi. Xalqaro huquqiy manbalar esa bola huquqlarini himoya qilishning universal tamoyillarini belgilab, milliy tizimni takomillashtirishda muhim yo‘nalishlarni ko‘rsatadi. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola huquqlarini ta’minlashda pedagoglarning roli alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularning huquqiy bilimlari, kasbiy kompetensiyasi va mas’uliyati ushbu jarayon samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Demak, mazkur adabiyotlar tahlili “Maktabgacha ta’lim tashkilotida bola huquqlarini ta’minlashda pedagoglarning majburiyatlari” mavzusining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi hamda ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish muhim ekanligini asoslaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bola huquqlarini ta’minlashda pedagog xodimlarning qonuniy majburiyatlariga oid normativ huquqiy hujjatlarni o‘rganish va tahlil qilish, ishlab chiqish. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining bola huquqlarini ta’minlash bo‘yicha asosiy majburiyatlarini aniqlashtirish. Pedagog xodimlar tomonidan majburiyatlarni bajarishda yo‘l qo‘yiladigan tizimli muammo va kamchiliklarni (huquqiy bilimlarning yetishmasligi, ichki nazoratning sustligi) aniqlash. Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori tomonidan pedagoglarning majburiyatlarini bajarishini ta’minlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: mamlakatdagi barcha huquqiy munosabatlarning asosiy manbai va oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Unda inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan. Konstitutsiyaning tegishli moddalarida bolalarning huquqlari, ularning manfaatlarini himoya qilish, sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, oila, onalik, otalik hamda bolalikni davlat tomonidan muhofaza qilish masalalari

mustahkamlangan. Xususan, Konstitutsiyada har bir bolaning davlat himoyasida ekanligi, uning ta’lim olish, sog‘lig‘ini saqlash, xavfsiz muhitda yashash va rivojlanish huquqlari kafolatlangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni bolalarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini belgilab beradi. Mazkur Qonunda bolaning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, uni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish, ta’lim olish va erkin rivojlanish huquqini ta’minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida qayd etilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar huquqlarini ta’minlashning muhim huquqiy asoslarini yaratadi. Ushbu qonunlarda bolalarning xavfsizligi, sog‘lig‘ini muhofaza qilish, sifatli ta’lim va tarbiya olish huquqi, shuningdek, pedagog xodimlarning kasbiy odobi va mas’uliyati alohida belgilangan. Pedagoglar o‘z faoliyatida insonparvarlik, adolat, qonuniylik va bolaga hurmat tamoyillariga amal qilishi shartligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bilan birga, 2025-yil 24-dekabrdagi PF–256-son Farmonda bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish, ularga nisbatan shafqatsiz munosabatning oldini olish hamda ta’lim muassasalarida xavfsiz va sog‘lom muhit yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mazkur Farmon bolalarni himoya qilish sohasidagi huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, zo‘ravonlikka uchragan bolalarni aniqlash va ularga psixologik, ijtimoiy hamda huquqiy yordam ko‘rsatish tizimini kuchaytirishga xizmat qiladi. Demak, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va unga asoslangan qonunchilik hujjatlari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola huquqlarini ta’minlash, ularni har qanday zo‘ravonlik va kamsitishlardan himoya qilish, bolalarning manfaatlarini ustuvor qo‘ygan holda pedagogik faoliyatni tashkil etishning mustahkam huquqiy poydevorini yaratadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimida bola huquqlarini ta’minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bolaning hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar jamiyatda barqaror ijtimoiy muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida xalqaro va milliy huquqiy normalar, xususan, Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya hamda O‘zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari bolalarni har qanday jismoniy, ruhiy va iqtisodiy zo‘ravonlikdan himoya qilishning asosiy huquqiy asosi ekanligi aniqlandi. Shuningdek, bolalarni himoya qilish tizimida davlat organlari, ta’lim muassasalari, oila va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligi asoslandi. Zo‘ravonlik holatlarining oldini olishda profilaktik choralar, huquqiy targ‘ibot va psixologik yordam xizmatlarini rivojlantirish muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, bolalar huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, zamonaviy huquqiy mexanizmlarni joriy etish va xalqaro tajribalarni amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2008.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2023.
4. United Nations. Convention on the Rights of the Child. – New York: UN, 1989.
5. UNICEF. Child Protection Strategy. – New York: UNICEF, 2021.
6. Human Rights Watch. World Report 2024: Children’s Rights. – New York, 2024.

7. Ismoilov B. Bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari. – Toshkent: Adolat, 2020.
8. Yuldashev A. Voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish tizimi. – Toshkent: TDYU, 2021.
9. UNICEF Uzbekistan. Children and Violence Prevention Report. – Tashkent, 2022.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi materiallari. – Toshkent, 2024.